

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

XO‘JAMQULOV ANVAR JOZILOVICH

**OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB
MUAMMOSI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological sciences**

Xo'jamqulov Anvar Jozilovich

Omon Muxtor romanlarida poetik uslub muammosi 3

Ходжамкулов Анвар Джозилович

Проблема поэтического стиля в романах Омона Мухтора..... 21

Khojamkulov Anvar Jozilovich

The problem of poetic style in the novels by Omon Mukhtor 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

XO‘JAMQULOV ANVAR JOZILOVICH

**OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB
MUAMMOSI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3.PhD/Fil965 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengash veb-sahifasining (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hasanov Shavkat Ahadovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Yo'ldoshev Boynazar
filologiya fanlari doktori, professor

Shofiyev Obidjon Baxtiyorovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:


Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "dekabr" soat 17.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz Samarqand davlat universiteti, Bosh bino, 105-xona.)

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (135-raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "11" dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil "10" dekabr dagi 18 -raqamli reyestr bayonnomasi.)




H.P. Eshonqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor


D.B. Xursanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent


G.H. Umurova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo adabiyotshunosligida poetik uslub masalasi, ijodkorning individual uslubini aniqlash, roman janri xususiyatlari, xarakter yaratish mahoratiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Shuningdek, adabiyotning barcha tur va janrlarida odam va olamni badiiy kashf etishda shakliy-uslubiy rang-baranglik, mazmun va shakl birligi, badiiy konsepsiya, ijodkor dunyoqarashi, individual uslub va badiiy mahorat masalalarini ochib berish, noan'anaviy romanlarda lirik va epik tasvir uyg'unligi, folklor an'analari, voqelikning absurd talqini, syurrealistik dunyoqarash va intermatnlik hodisasini asoslash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon adabiyotshunosligida roman janrining tadrijiy taraqqiyoti, unda milliy-adabiy an'analardan hamda jahon adabiyoti ilg'or tajribalarining aks etishi, inson va hayotni butun murakkablikda ko'rish, zohiriy va botiniy olamni, ruhiyatni ta'sirchan tasvirlash, falsafiy-psixologik talqin va majoziy obrazlilikni o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Adabiy-estetik tafakkurdagi o'zgarishlar romanlarning g'oyaviy mazmuni va mavzu qamrovini kengaytirish bilan birga adiblarning individual uslubi, tasvir va ifodadagi betakrorlikni yuzaga keltirmoqda. Badiiy asarda inson ruhiyati va ma'naviy olamini turli rakurslarda ta'sirchan va ishonarli tasvirlash, shakliy-uslubiy yo'nalishlarning kengayishi, adiblar dunyoqarashi, metod, janr, uslub va poetik tildagi xilma-xil yondashuvlarni aniqlash adabiyotshunoslikning muhim masalalaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik ilmiga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. "Yoshlar o'rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyatini va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilmfani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun kerakli muhit va shart-sharoit yaratish zarur"¹. Shu bois badiiy adabiyotda uslub xilma-xilligi, yozuvchilar ijodiy individualligining turfaligi, milliy va umumbashariy adabiy tafakkur aloqasi kuchayayotganligi, an'anaviy realistlik tasvir imkoniyatlarining yanada kengayishi va yangi modernistik yondashuvning shakllanish jarayoni roman janrini maxsus o'rganishni taqozo etadi. Jumladan, Omon Muxtor romanlarida poetik uslub muammosini o'rganish, uning individual uslubi va badiiy mahoratini aniqlash bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-sonli "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi hamda 2020-yil 14-dekabrda 781-sonli "2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2017-yil 13-sentabrda PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish,

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурининг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2017 йил, 16 январь.

kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida roman janri, uslub, poetik til haqida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Jumladan, Arastu, M.M.Baxtin, V.G.Belinskiy, V.V.Vinogradov, V.M.Golovko, V.Jirmunskiy, V.Kojinov, L.S.Lixachev, A.A.Potebnya, V.Ye.Xalizev, M.B.Xrapchenko kabi xorijlik olimlarning ilmiy asarlarida uslub, badiiy asar tahlili, roman janri va uning asosiy xususiyatlari haqidagi nazariy qarashlar e'tiborga loyiqdir¹.

O'zbek adabiyotshunosligida sho'ro davri va istiqlol davri romanchiligi, shuningdek, noan'anaviy romanlar, ijodkorning poetik uslubi, uslub muammosi haqida Abdurauf Fitrat, I.Sulton, M.Qo'shjonov, S.Mamajonov, O.Sharafiddinov, M.Sultonova, O'.Nosirov, N.Shukurov, B.Nazarov, U.Normatov, H.Boltaboyev, Q.Yo'ldoshev, D.Quronov, B.Karimov, Sh.Hasanov, Y.Solijonov, S.Sodiq, U.To'ychiyev, D.Xoldorov, H.Karimov, M.Qo'chqorova, Sh.Doniyorova, M.Xolbekov, A.Sabirdinov, O'.Nazarov, N.Azizov, G.Atabayevalar tomonidan muhim ilmiy izlanishlar olib borilgan².

¹ Арасту. Поэтика. Ахлоқи Кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – Б. 351; Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Художественная литература, 1975. – С. 502; Белинский В.Г. Собрание сочинений. Т.3. – Москва: 1978. – С. 271; Виноградов В.В. О теории художественной речи. – Москва: Высшая школа, 1971. – С. 118; Головкин В.М. Поэтика русской повести. – Саратов: 1992. – С. 276; Жирмунский В. Стихотворение Гёте и Байрона: Ты знаешь край?.. Изд. МГУ 1961. – С. 294; Кожин В. Повесть. Словарь литературоведческих терминов. – Москва: Просвещение, 1974. – С. 272; Лихачев Л.С. Неравнодушная проза. – Москва: Художественная литература, 1984. – С. 314; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – Москва: Искусство, 1976. – С. 614; Хализев В.Е. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 2002. – С. 397; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – Москва: Писатель, 1975. – С. 407.

² Абдурауф Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 336; Сulton И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – Б. 408; Қўшжонов М. Қалб ва қиёфа. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976. – Б. 224; Мамажонов С. Наср, давр, қахрамон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – Б. 240; Шарафиддинов О. Дунёда офтоб борки / Ҳақиқатга садоқат. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б. 344; Султонова М. Ёзувчи услубига доир. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 116; Носиров Ў. Ижодкор, шахс, бадий услуб, автор образи. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 198; Шукуров Н. Услублар ва жанрлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – Б. 170; Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985. – Б. 218; Норматов У. Насримиз аъёнлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – Б. 215; ўша муаллиф. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 112; Болтабоев Х. Стилевые искания современной узбекской прозы (70-е годы): Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1983; Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 547; Қурунов Д. "Адабиёт надир" ёки Чўлпоннинг мангу саволи. – Тошкент: Зарқалам, 2006. – Б. 128; Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2016; Ҳасанов Ш. Достон таркиби ва табиати. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. – Б. 228; Солижонов Ё. Нутқ ва услуб. – Тошкент: Чўлпон, 2002; Содиқ С. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 320; Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 510; Холдоров Д. Ижод моҳияти – услуб ҳосияти. – Тошкент: Турон замин зиё, 2017. – Б. 160; Каримов Х. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси: Филол.фанлари номз. ... дисс. – Тошкент, 1995; Қўчқорова М. Бадий сўз ва рухият манзаралари. – Тошкент: Муҳаррир, 2011. – Б. 232; Дониёрова Ш. Омон Мухтор ижодида янгича талқинлар. – Тошкент: Турон замин

Biroq hozirgacha e'lon qilingan tadqiqotlarda Omon Muxtor romanlarida poetik uslub muammosi maxsus o'rganilmagan. Bugungi romanchilikdagi uslubiy rang-baranglik, ijodiy individuallik muammosi qator ishlarda qisman qayd etilsa ham, poetik uslubning roman janri takomilidagi o'rni, turfa tasvir va ifoda qatlaridagi badiiy funksiyasi bevosita monografik planda maxsus tadqiq etilmagan. Hozirgi romanlarda an'anaviy hamda zamonaviy uslub ko'rinishlari tobora yangilanib, individuallik kuchayib, takomillashib borar ekan, ularning asosiy xususiyatlari va o'zaro ta'sirini poetik uslub muammosi aspektida o'rganish ilmiy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Adabiy tur va janrlar poetikasi" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Omon Muxtor romanlarida poetik uslub muammosi, yozuvchining individual uslubi, badiiy mahoratini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hozirgi romanchilikka xos (folklor an'analari, lirik va epik tasvir uyg'unligi, intermatnlik) va yangicha (absurd talqin, syurrealistik dunyoqarash kabi) uslubiy izlanishlarni aniqlash;

poetik uslub muammosi, ijodkorning individual uslubi va badiiy mahoratini romanlar tahlili orqali asoslash;

mazmun va shakl birligi, badiiy konsepsiya, ijodiy individuallik, intermatn va intermatnlik hodisasini ochib berish;

yozuvchi romanlarida inson ruhiyati tasvirining tobora chuqurlashuvi, ijodkor dunyoqarashi, absurd talqin, syurrealizmning namoyon bo'lishini dalillash;

Omon Muxtor romanlari tilida xalqona obrazli ifoda, iboralar, jonli xalq tiliga xos unsurlar – folklor an'alarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida yozuvchi Omon Muxtorning "To'rt tomon qibla" trilogiyasi ("Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba" romanlari), "Xotin podshoh", "Aflotun", "Ayollar mamlakati va saltanati", "Ffu" romanlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Omon Muxtor romanlarida mazmun va shakl birligi, folklor an'analari, lirik va epik tasvir uyg'unligi, voqelikning absurd talqini, syurrealistik dunyoqarash, intermatnlik hodisasi kabi masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, biografik, lingvopoetik, psixo-analitik va struktural tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

зиё, 2017. – Б. 110; Холбеков М. XX аср жаҳон адабиёти манзаралари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2020. – Б. 698; Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. – Тошкент: Академнашр, 2016. – Б. 137; Назаров Ў. Омон Мухтор романларида бадий хронотоп муаммоси: Филол.фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Қарши, 2018; Азизов Н. Омон Мухтор романлари поэтикаси: реализм ва фантастика уйғунлиги: Филол.фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Андижон, 2022; Atabayeva G. Omon Muxtor romanlarida shakliy-uslubiy o'ziga xoslik: Filol.fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Guliston, 2023.

noan'anaviy romanlarda nasriy bayon, she'riy misra va remarkalarning keltirilishi epik, lirik hamda dramatik turlarning sinkretikligini, ruhiyat qamrovining kengligini, mazmun va shakl uyg'unligini hosil qilganligi asoslangan;

Omon Muxtor romanlarida voqealar tasviri ertak, afsona va rivoyatlar uslubida sodda, qisqa va ixcham tarzda ifoda etilishi ochib berilgan;

asar qahramonlarining ruhiyat tasviri ong oqimi yo'nalishi asosida yoritilishi, folklor an'analarining aks etishi, voqelikning absurd talqini, ijodkorning syurrealistik dunyoqarashi aniqlangan;

Omon Muxtorning "To'rt tomon qibla" trilogiyasi, "Xotin podshoh", "Ayollar mamlakati va saltanati", "Ffu" hamda "Aflotun" romanlarida lirizmning kuchliligi, obrazlarning ramziy ifodada berilishi, sujetda aqliy tafakkurdan ko'ra hissiyotning yetakchilik qilishi kabi poetik mahorati hamda intermatnlik, rizoma, tagma'nolilik, kinoyaviylik xususiyatiga ega individual uslubi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek modern adabiyotida Omon Muxtor romanlarining o'zbek romanchiligi tarixida tutgan o'rni va ahamiyoti badiiy tahlillar orqali asoslangan;

folklor an'analarining noan'anaviy romanlar – "Xotin podshoh" hamda "Aflotun" romanlarida aks etishi aniqlangan;

"Ko'zgu oldidagi odam", "Ayollar mamlakati va saltanati" romanlarining ifoda tarzida lirik va epik tasvir uyg'unligi ochib berilgan;

voqelikning absurd talqini "Ffu" hamda "Ming bir qiyofa" romanlari tahlili asosida dalillangan;

"Tepalikdagi xaroba" romanida syurrealizm, "Xotin podshoh" romanida esa intermatnlik hodisasining aks etishi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullar, chiqarilgan nazariy xulosalar ilmiy asoslanganligi, tahlil jarayonida adabiyot nazariyasi, xalq og'zaki poetik ijodi, o'zbek mumtoz adabiyoti va XX asr o'zbek romanchiligi, shu bilan birga, zamonaviy jahon romanchiligi poetikasi talablaridan kelib chiqqanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan mustaqillik davri o'zbek adabiyoti tarixini yaratishda, adabiyot nazariyasi fanining nasr, janr, badiiy uslub, adabiy sintez masalalarini o'rganishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalari va xulosalari amaliy ahamiyatga ham ega. Ulardan oliy ta'lim muassasalarida "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Hozirgi adabiy jarayon", "Yangi o'zbek adabiyoti", "Badiiy tahlil asoslari" fanlari bo'yicha darslik va qo'llanmalar yaratishda, o'zbek romanchiligi takomiliga bag'ishlangan maxsus kurs, seminarlar o'tkazishda hamda talabalar, magistrantlar va tayanch doktorantlar tomonidan malakaviy bitiruv ishlari, dissertatsiyalar, monografiyalar yozishda, shuningdek, o'rta maktab, litsey va maktab-internatlarda o'zbek adabiyoti va ma'naviyati darslarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Omon Muxtor romanlarida poetik uslub muammosini tadqiq etish, uning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish, ilmiy-amaliy natijalarini belgilash asosida:

Omon Muxtorning “To‘rt tomon qibla” trilogiyasi, “Xotin podshoh”, “Ayollar mamlakati va saltanati”, “Ffu” hamda “Aflotun” romanlarida lirizmning kuchliligi, obrazlarning ramziy ifodada berilishi, sujetda aqliy tafakkurdan ko‘ra hissiyotning yetakchilik qilishi kabi poetik mahorati hamda intermatnlik, rizoma, tagma‘nolilik, kinoyaviylik xususiyatiga ega individual uslubiga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-005 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2024-yil 24-apreldagi 158/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada, loyiha ishining noan‘anaviy romanlardagi janr masalasi, roman xususiyatlarining yangicha tus olishi, uning uning boshqa janrlar bilan sintezlashuvi ilmiy dalillar bilan boyishiga xizmat qilgan;

asar qahramonlarining ruhiyat tasviri ong oqimi yo‘nalishi asosida yoritilishi, folklor an‘analarining aks etishi, voqelikning absurd talqini, ijodkorning syurrealistik dunyoqarashi asosida O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati teleradiokompaniyasi madaniy-ma‘rifiy ko‘rsatuvining 2024-yil 7-may kuni jonli efirda uzatilgan “Assalom, Samarqand!” tonggi dasturi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 8-maydagi 01-07/102-son ma‘lumotnomasi). Natijada, viloyat teleradiokompaniyasi madaniy-ma‘rifiy ko‘rsatuvini mazmunan boyitish va bu orqali tadqiqotchilar, filolog o‘qituvchilar hamda yosh ijodkorlarning Omon Muxtor uslubi, poetik mahorati borasidagi bilimlarini yanada boyitish uchun xizmat qilgan;

noan‘anaviy romanlarda nasriy bayon, she‘riy misra va remarkalarning keltirilishi epik, lirik hamda dramatik turlarning sinkretikligini, ruhiyat qamrovining kengligini, mazmun va shakl uyg‘unligini hosil qilganligi borasidagi nazariy xulosalar asosida O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Samarqand bo‘limining she‘riyat va adabiy tanqid kengashlarida, uyushma qoshidagi “Saodat” ijodiy to‘garagi yig‘ilishlarida debatlar tashkil etilgan. To‘garak faoliyatida Omon Muxtor romanlarida voqealar tasviri ertak, afsona va rivoyatlar uslubida sodda, qisqa va ixcham tarzda ifoda etilishi tahlil qilingan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 7-maydagi № 01-03-/545 ma‘lumotnomasi). Natijada, yosh ijodkorlar, ilmiy izlanuvchilar, adabiy jamoatchilik vakillari hozirgi adabiy jarayon, jumladan, Omon Muxtorning poetik uslubi haqidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 7 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 12 ta ilmiy maqola, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan, 5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. Tadqiqotning umumiy hajmi 127 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Omon Muxtor romanlarida mazmun va shakl birligi”** deb nomlangan bo'lib, ikki fasldan tashkil topgan. *“Noan'anaviy romanda folklor an'analari”* deb atalgan birinchi faslda yozuvchi ijodidagi noan'anaviy romanlar va ularda folklor an'analarning aks etishi to'g'risida fikr yuritilgan. Har bir asarda muallifning o'ziga xos poetik uslubi – dunyoqarashi, individual yondashuvlari, o'y-kechinmalari bilan bir qatorda, u yashab turgan zamon va makonga xos bo'lgan sabablar ta'siri ham sezilib turadi. Ijodkor o'zlikni anglash yo'lida o'zi yashab turgan davr hayoti bilan birga o'tmish, tarixiy voqealar, qadriyatlar, bir so'z bilan aytganda, folklor an'analarga ham murojaat qilishi mumkin. Yozma adabiyotning paydo bo'lishida og'zaki adabiyotning asos vazifasini o'taganligini inobatga olsak, ikki shaklda namoyon bo'luvchi bu adabiyotni bir-biridan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi.

Yozuvchi Omon Muxtor romanlarida tarixiy voqealar bayon qilingan, xalq og'zaki poetik ijodi ruhi bilan sug'orilgan, o'quvchini folklor olamiga yetaklaydigan o'rinlar ko'p uchraydi. “Omon Muxtor asarlarini o'qish jarayonida bugungi inson ruhiyatining yangidan yangi qirralarini inkishof etish maqsadida xalqimizning mifologik tasavvurlaridan ham samarali foydalanganligini ko'ramiz. Adib asarlarida oddiy rivoyat va afsonalar bilan birga, xalq ertaklarining an'anaviy motivlari hamda qadimiy qo'shiqlarga ham ancha keng o'rin berilgan”¹. Yozuvchi ijodi haqida so'z borganda, uning zamonaviy jahon adabiyoti tendensiyalarini milliy adabiyotimizda davom ettirayotganligi bilan bir qatorda mahalliy muhit koloritini bera olganligi, uning o'tmishi va bugunini folklor an'analari asosida tasvirlay olganini ham ta'kidlash joiz.

Yozuvchining “Xotin podshoh” romanida tarixiy faktlar, tarixchilarning yozib qoldirgan ma'lumotlari, muallifi aniq bo'lgan she'riy parchalar bilan birga, qadimiy rivoyatlar, afsonalar, latifa-askiyalar, roviylar tomonidan aytilgan hikoyalar, bir so'z bilan aytganda, folklor janrlariga oid ko'plab asarlarni uchratish mumkin.

Romanda xalq og'zaki ijodiga mansub ko'plab rivoyat va afsonalar berilgan. Ushbu afsona va rivoyatlarning asar sujetiga mohirlik bilan singdirilishi asarning

¹ Дониёрова Ш. Омон Мухтор ижодида фольклор аъаналари. // Ўзбек тили ва адабиёти журнали. – Тошкент, 2001. № 5. – Б. 64.

ortiqcha zo'riqishlarsiz, ertakdek yengil o'qilishini ta'minlaydi. Voqealar rivojida Xotin podshohning afsonaviy To'marisga qiyoslanishi, Shiroq jasorati tavsifi orqali buxorxudot shaxzodalarining jur'atsizligi, roviy obrazi vositasida esa donishmand hikoyanavis – xalq ertakchilari tasviri ifoda etilgan. Shuningdek, Buxoroning Alp Er To'nga (Afrosiyob) tomonidan bunyod etilganligi to'g'risidagi rivoyat, Eron shahzodasi Siyovushning Alp Er To'nga (Afrosiyob) ishonchiga kirib, uning qiziga uylanishi va oxir-oqibat Alp Er To'nga (Afrosiyob)ga xiyonat qilishi oqibatida qatl etilishi, unga atab xalq tomonidan marsiyalar to'qilishi, xalqona turli urf-odatlar (masalan, xo'roz so'yish kabilar)ning hikoya qilinishi tarixiy va ma'rifiy oziq olish bilan bir qatorda, o'quvchini xalq og'zaki ijodi olamiga yetaklaydi.

“Aflotun” romanida ham folklor motivlari bo'y ko'rsatgan o'rinlar talaygina. Asarning nomi ko'pchilikni uni mutolaa qilishdan avval qadimgi yunonlar imperiyasi davrida ro'y bergan voqealar romanning mazmunini tashkil etishini taxmin qilishga undaydi. Roman “Odamlar va soyalar”, “Begona hayot”, “Muhabbatning saroyi” va “Dunyo tasodiflarga to'la” deb nomlangan to'rt qismdan iborat. Har bir qismda asarning turli zamon va makondagi voqealar markazida turuvchi qahramon – Usmonning kimnidir yoki nimanidir qidirib yo'lga chiqishi hikoya qilinadi. Birinchi qismda Usmon Ruxsora ismli qizni izlab yo'lga chiqqan bo'lsa, ikkinchi qismda Rauf, uchinchi qismda esa sirli sandiqni izlaydi. Izlaganlarini qismlar oxirida topadi, biroq topilmalar uni yana boshqa narsalarni qidirishga undaydi. Ushbu voqealar tasviri folklorning ertak janrida kuzatiladigan jumboq motivini esga soladi. Ertak-topishmoqlarda uchraydigan sujet liniyasi bilan o'xshashlik yuzaga kelganligi ko'zga tashlanadi.

“Xotin podshoh” va “Aflotun” romanlari tahlili asosida bu asarlarning xalq og'zaki ijodi an'analari bilan boyitilganligiga, folklor namunalarining asar sujetiga bir butun bo'lib singib ketganligiga guvoh bo'lamiz. Yozuvchining folklorga xos tasvir usulidan ustalik bilan foydalanishi uning boshqa ijodkorlarda uchramaydigan, o'ziga xos individual uslubidan darak beradi.

Shuningdek, faslda noan'anaviy roman istilohi borasida mulohazalar o'rin olgan. Chunonchi, adabiyotshunos D.Quronov XX asrning so'nggi yillarida badiiy izlanishlar natijasi o'laroq bir necha romanlar yuzaga kelganligini ta'kidlar ekan, bunday yaratilarning “an'anaviy roman”lardan keskin farq etishini, shu bois ularga nisbatan “modernistik roman” atamasini qo'llash zarurati yuzaga kelganligini qayd etadi hamda ulardagi hayot va xayolot qorishib ketishi (“Ko'zgu oldidagi odam”, “Tepalikdagi xaroba”), ramziy-majoziy ifodaning ustunligi (“Bozor”), zamon va makon tushunchasidagi shartlilik (“Isyon va itoat”), ikki turli makon va zamonda kechuvchi fragmentlardan bir butunlik hosil qilinishi (“Boqiy darbadar”) kabi xususiyatlarni “realistik tendensiyalar kuchliligidan haqiqatga monand manzaralar tasvirlangan”¹ an'anaviy romanlardan farqlantirib turuvchi alomatlar ekanligini aytadi. Ushbu mavzudagi boshqa bir tadqiqotda esa “O.Muxtorning “Ko'zgu oldidagi odam”, “Aflotun”, X.Do'stmuhammadning “Bozor” kabi romanlarida falsafiy mushohada, “Ming bir qiyofa”, “Tepalikdagi

¹ Дилмурод Куронов. Завқимдан бир шингил. – Тошкент: “Академнашр”, 2012. – Б.14

xaroba”da psixologik tahlil, T.Rustamning “Kapalaklar o‘yini”da absurd g‘oya”¹ ularning noan’anaviyligini namoyon etuvchi xususiyatlar ekanligi qayd etiladi. E’tibor berilsa, yuqorida sanalgan ko‘pgina o‘ziga xosliklarlar, ya’ni hajman ixchamlik, ramziylik, xayoliylik, falsafiy mushohadakorlik, psixologizm aslida an’anaviy romanlarda ham mavjud bo‘lib, faqatgina ustuvor jihatlar sifatida bo‘rtib ko‘rinmay kelganligi ayonlashadi. Demak, barcha noan’anaviy tushunchalar kabi badiiy adabiyotdagi noan’anaviylik uchun ham ma’lum bir qoida-tamoyillar belgilanmagan. Xususan, romanga noana’anaviy deya qaralishi barcha an’anaviy romanlardagi “yirik hajmli voqeband asar”, “ko‘p planli murakkab sujet”, “hayotni keng ko‘lamda tasvirlash”, “murakkab obrazlar sistemasini tashkil etuvchi ko‘p sonli personajlar”, “qahramon hayotining katta bir davrini qalamga olish”² kabi belgilarning yetakchi emasligi, ba’zan mavjud bo‘lmasligida desak, to‘g‘riroqdir.

Bobning “*Ifoda tarzida lirik va epik tasvir uyg‘unligi*” masalasi o‘rganilgan ikkinchi faslida yozuvchining “Ko‘zgu oldidagi odam”, “Ayollar mamlakati va saltanati” romanlari tahliliga e’tibor qaratiladi. Ma’lumki, badiiy adabiyotni tur va janrlarga ajratish borasida adabiyotshunoslarning turlicha qarashlari, tasniflari mavjud. Ular orasida ifoda tarzi yoki shakl va mazmun nuqtayi nazaridan kelib chiqib qilingan tasniflarni uchratish mumkin. Aristotel sharhi bo‘yicha badiiy adabiyotni uch tur – epik, lirik va dramatik turlarga ajratish odat tusiga kirgan. Shuningdek, adabiy jarayonda yana shunday asarlar ham yaratilganki, ularda adabiy turlarning o‘zaro chatishuvini ko‘rish mumkin. Xususan, o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos individual uslubi bilan tanilgan Omon Muxtor romanlarida ham shakliy, ham mazmunij jihatdan adabiy turlarning badiiy integratsiyasi kuzatiladi.

Lirikada epik turga xos realizm, epik turda esa lirik turga xos romantizmning aks etishi liro-epik tasvir uyg‘unligini yuzaga keltiradi. Omon Muxtor romanlarida an’anaviy romanlarda bo‘lgani kabi voqebandlikdan ko‘ra qahramonning ichki olami, uning o‘y-xayollari, o‘zligini anglash, u orqali olamni tanish yo‘lidagi ruhiy iztiroblari tasviri asosiy o‘rinni egallaydi. “So‘nggi yillar o‘zbek adabiyotida lirik qurilishning ta’siri ortganligini nasriy asarlar misolida ham ko‘rish mumkin. O‘ylari, xayollari bilan yolg‘iz qolib, obyektiv olam sadolarini qalban tinglayotgan, ruhiy kechinmalari orqali anglashga intilayotgan shaxs qiyofasi hikoya, qissa, roman singari epik tur janrlarida ham ko‘plab yaratilmoqda. Bu qahramonlarda lirikada bo‘lgani kabi ichki faollik kuchli”³.

Yozuvchining “Ko‘zgu oldidagi odam” romani o‘zi yaratilgan davrga (XX asrning 90-yillari) qadar yozilgan an’anaviy realizm yo‘lidagi romanlardan kompozitsiyasi, tili va ifoda tarzi bilan ajralib turadi. Unda voqebandlikdan ko‘ra romantizm, bayonchilikdan ko‘ra ruhiyat tasviri, asar qahramonlarining ong osti o‘ylari kabi ifoda prinsiplari ustunlik qiladi.

Mazkur asarda ikkita epigraf keltirilgan bo‘lib, ularning birinchisi Oybekning quyidagi to‘rtligidan olingan:

“Tarix va falsafa chuqur, murakkab,

¹ <https://jdpu.uz/mustaqillik-davri-ozbek-roman%D1%87iligi-badiiy-va-ilmiy-tafakkur-masalalari/>. 11.05.2023.

² Дилмурод Куронов. Завкимдан бир шингил. – Тошкент, “Академнашр”, 2012. –Б.9.

³ Ҳасанов Ш. Достон таркиби ва табиати. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. – Б. 25.

Hayot mash'alidur haqiqat, chin gap,
Ijodning bulog'i tinimsiz oqsin:
Ming sir bor tuproqda – olsangiz bir kaft"¹.

Omon Muxtor ushbu to'rtlik orqali asar bosh qahramoni Valining hayoti, turmush kechinmalari "bir kaft"dek, tor qamrovli, uch-to'rt kishi qurshovida o'tayongandek tuyulsa-da, uning mana shu "bir kaftlik" hayotida "ming sir bor"ligi, uning hayoti boshdan-oyoq jumboq asosida kechayotganligini tasvirlaydi. O'quvchini esa ushbu jumboq yechimini qahramon bilan birga izlashga "majbur" qiladi.

Nasr va nazmning qorishiq holda ifoda tarziga aylanishi yozuvchining "Ayollar mamlakati va saltanati" romanida ham kuzatiladi. Roman hajman kichik bir qissadek (60 bet). Roman xususiyatlari uning faqatgina hajmiga bog'lab ifoda etilmasligini ham inobatga olish lozim. Roman ixcham hajmli bo'lsa-da, u o'zida butun bir davrning epik kayfiyatini va mazmunini ifoda etishi mumkin. Jumladan, yozuvchi o'z romanlarining tuzilishida hajman ixchamlikka intilishini quyidagicha izohlaydi: "Men uchun ohang muhim. Har bir asarning ohangi, o'z yo'nalishi bo'lishi kerak. O'sha topilgan ohang qanday yetaklasa, shunday yozaman-da. Shu narsa asarning hajmini ham, yakunini ham belgilab beradi"². Chindan ham Omon Muxtor romanlarining har birida o'zgacha ohang mavjud bo'lib, bu esa ma'lum darajada ular tarkibidagi she'riy parchalarga ham bog'liqdir. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshevning ta'kidlashicha: "Adib (O.Muxtor – A.X.) istiqlool davri o'zbek romanchiligiga qator yangiliklar olib kirdi. U davrning shiddatkorligini, axborotlar haddan tashqari ko'pligini, qolaversa, o'quvchining vaqti taqchilligini hisobga olib, roman hajmini qisqartirishga urinadi. Ayni vaqtda, roman "alohida individning eposi" ekanidan kelib chiqib, tasvirda psixologizmni kuchaytirishga intiladi. Uning romanlarida ortiqcha tafsilot yo'q, badiiy ma'no esa tasvirga sig'mas darajada tig'iz"³. Badiiy ma'noni qisqa shaklda ifoda etishda lirik turning imkoniyatlari epik turga qaraganda ancha keng. Shuni inobatga olib, yozuvchi kichik hajmli romanda "katta" gaplarni aytishda lirik tasvir imkoniyatlaridan samarali foydalanadi.

Tadqiqotning **"Badiiy konsepsiya va ijodkor dunyoqarashi"** deb nomlangan ikkinchi bobi ikki fasldan tarkib topgan. *"Voqelikning absurd talqini"* deb nomlangan birinchi faslda Omon Muxtorning "Ffu" va "Ming bir qiyofa" romanlari tahlili asosida absurd talqinning o'zbek adabiyotiga ta'siri masalasi tadqiq etilgan. Bu romanlarda hayot haqiqatini boricha, ortiqcha bezaklarsiz, asliyatida qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirlash uslubi jahon adabiyoti ta'sirida milliy adabiyotimizda ham bo'y ko'rsatayotganligi namoyon bo'ladi. Bu kabi uslubda yaratilgan asarlar insonning o'z "men"ini topishga intilishi, hayotining ma'nosizligi, insonlardagi boshqarilishga bo'lgan istak ("qullik falsafasi", "ozodlikdan qochish"), hayotini qotib qolgan stereotip (qolip)lardan xalos etishga

¹ Ойбек. Созим. (Шеърлар тўрлами). – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 64.

² Омон Мухтор. Ҳар кимнинг ўз замин, ўз осмони бор. // "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси, 1998, 6-март сони.

³ Омон Мухтор. Танланган асарлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2023. – Б. 4.

bo'lgan xohishning mavjudligi-yu, biroq oxir-oqibatda hech qanday yangilanish (innovatsiya)larga ham ko'nika olmasligi va boshqa shu singari mavzular bilan xarakterlanadi.

Omon Muxtor ijodida absurd adabiyoti tendensiyalariga mos mavzular ko'p uchraydi, uning "Ffu" romanida voqelikni absurd talqinda bayon etish kuzatiladi. Romanda bosh qahramon – oddiy quruvchi Mulla Toshpo'lat va uning yolg'iz farzandi Toshtemirning absurd (ma'nisiz) hayotda ma'no izlashga bo'lgan intilishlari va buning oqibatida ularning ruhiyatida kechgan evrilishlar tasvirlangan.

XX asr 90-yillari boshida yozilgan "Ming bir qiyofa" romanida ham g'arb ekzistensializmi va absurd falsafasining ta'sirini sezishimiz mumkin. Yozuvchi asarlarining xususiyatlari haqida so'z borganda, adabiyotshunos Umarali Normatovning quyidagi fikrlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir: "Omon Muxtorning 90-yillari yaratilgan "Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba", "Ayollar mamlakati va saltanati", "Aflotun", "Maydon" kabi mo'jaz va original romanlari milliy romanchiligimiz rivojida jiddiy yangilik bo'ldi. Bu romanlar, avvalo, mazmun-mundarija, shakl-shamoyili, ifoda tarzining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. O'zbek romani 90-yillarga qadar asosan an'anaviy realizm yo'lidan bordi. Jumladan, Omon Muxtorning 70-80-yillari yaratgan "Yillar shamoli", "Egilgan bosh" romanlari shu yo'nalishga mansub edi. Ma'lumki, jahon adabiyoti, jumladan, romanchiligi asr boshidayoq an'anaviy realizm bilan barobar modernizm, postmodernizm yo'liga o'tib janrning ifoda doirasini benihoya kengaytirgan, xilma-xil falsafiy-estetik oqimlarga tayanuvchi romanchilik maktablari shakllana boshlagan edi. Ayniqsa, absurd, ekzistensializm, mifologik va diniy tafakkur asosida hayotni, shaxsni badiiy tadqiq etish, ong oqimini kuzatish, ifodalash bobida katta tajribalar to'plandi"¹.

Omon Muxtor romanlari aniq makon va zamon tushunchasidan xoli bo'lgani bilan bu romanlarni real hayotdan, ijtimoiy mazmundan uzilib qolgan, deb bo'lmaydi. Yozuvchi romanlarida bugungi kunda ko'pchilikni qiynayotgan va yechimini kutayotgan muammolar qalamga olingan. "Ming bir qiyofa" romanidagi ko'plab personajlar tirik odamday gavdalansalar-da, ular aslida betayin, qiyofasiz kimsalardir. Ular dinsizlik, e'tiqodsizlik va qiyofasizlik sababli shu holga kelishgan. Yozuvchining nisbatan ijobiy deya baholanadigan qahramonlari ham bir qadar mayda, gunohkor, yo'ldan adashgan-ozgan, realistik asarlardagi kabi ideal emas. Ular haqiqatga qarashdan qo'rqishadi, hayotida to'g'ri yo'lni topa olmay ovora, maqsadsiz yo'lda sarson-sargordon. Ularning taqdiri labirintdan chiqishga intilgan kishilar taqdiri kabi rizomatik xarakterga ega.

Rizomani tushunish uchun o'simlikning chigallashgan ildiz tizimini tasavvur qilish kifoya. Unda na boshlanish, na oxir, na markaz va na o'qtomir mavjud emas, hammasi aralash, chigal. Rizoma – tizimsizlik, kutilmagan qarorlar majmuyi, oqibatini taxmin qilib bo'lmaydigan harakatlar umumlashmasi, xaosga o'xshash falsafadir.

¹ Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 223.

“Ming bir qiyofa” romani personajlari imon-e’tiqoddan mosuvo, xalqning milliy qadriyatlarini oyoqosti qilgan, o‘z maqsadlariga erishish uchun ming bir qiyofada tovlanadigan, hayotda mavjud, lekin “yashamayotgan” kishilardir.

Bundan tashqari, voqealar tasvirlangan makon va zamonda insonlar uchun oldinda bir nur – ishonch yo‘q, suyanadigan, tayanadigan, e’tiqod qiladigan muqaddas mayoq yo‘q.

Ateizmga, xudosizlikka tayangan jamiyatning mafkurasi inson kelajagini yoritib turadigan, yashashga ishtiyoq beradigan biror bir o‘lmas g‘oyani taklif eta olmadi, shu bois tiyiqsiz olomonni boshqarib turish uchun **qo‘rquvni** asosiy vosita qilib oldi.

Umuman olganda, ikkala romanda keltirilgan personajlar hayotdan ma’no izlashni unutib qo‘yganliklari, o‘z maqsadiga erishish uchun ming bir qiyofaga kirib, barcha muqaddas tushunchalar, hatto muhabbatidan voz kechishga ham tayyorliklari, doim tushkun kayfiyatda yashashga mahkumlighi, bir so‘z bilan aytganda, bularning barchasi absurd tuyg‘usi ekanligi oydinlashadi.

“Ffu” hamda “Ming bir qiyofa” romanlari yengil o‘qilishi, voqealarning o‘quvchi uchun oson tushunilishi, shuningdek, kishini absurddan chekinib, hayotni sevishtga, uning qadriga yetib, hayotida ma’no-mazmun yaratishga undashi bilan ahamiyatlidir.

Bobning “*Omon Muxtor ijodida syurrealistik dunyoqarash*” deb nomlangan ikkinchi faslida yozuvchining “Tepalikdagi xaroba” romani tahlili asosida syurrealizm yo‘nalishi xususiyatlari tadqiq etilgan.

“Syurrealizm taxayyul erkinligi, insonni sivilizatsiya zug‘umidan ozod qilish shiorlari bilan maydonga chiqdi, obyektiv voqelikni tasvirlash va badiiy bilish emas, balki undan-da yuqori turuvchi reallikni yaratish, inson ongining chuqur puchmoqlarini tasvirlash, uning ongosti qatlamlariga ta’sir qilish orqali badiiy muloqotni amalga oshirishni maqsad qildi, “avtomatik yozish”ni ijodning asosiy usuli deb bildi”¹. Andre Breton o‘zining “Syurrealizm manifesti”da: “Haqiqiy ruhiy avtomatizmning maqsadi qaysi shaklda namoyon bo‘lishidan qat’i nazar fikrning real yashashini ta’minlash, uni aql nazoratidan qutqarish, hech qanday estetik va ma’naviy andishalarsiz ifoda etishdir”², – deydi.

Syurrealistik dunyoqarash bilan yaratilgan asarlar Omon Muxtor ijodida ham uchraydi. Adabiyotshunoslar tomonidan syurrealizmning G‘arb adabiyotida o‘z umrini yashab bo‘lganligi ta’kidlansa-da, o‘zbek adabiyoti uchun nisbatan yangi yo‘nalish sanaladi. Omon Muxtor asarlari, jumladan, “To‘rt tomon qibla” trilogiyasidagi romanlar makon va zamonning muqim emasligi, voqealar xuddi tushda ro‘y berayogandek taassurot uyg‘otishi bilan o‘quvchini ongli, aqliy hayotdan hissiy, ruhiy olamga yetaklaydi.

Omon Muxtor uslubiga xos badiiy ifoda tarzini realizmdan uzilgan sof syurrealistik tasvir deb ham bo‘lmaydi. Uning asarlaridagi insonlar ham jamiyatdagi boshqa insonlar qatori oddiy hayot kechiradi. Biroq yozuvchi ushbu

¹ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 291.

² Андре Бретон. Манифест сюрреализма, 1924 год | БЛОГ ПЕРЕМЕН. Pere meny.ru (Кириш вақти – 25.04.2024)

personajlar ruhiyatini tasvirlashda ularni jamiyatning mayda-chuyda ikir-chikirlari, tashvishlari bilan bog'lamay, balki ularning ong ostiga nazar tashlaydi. Ruhiyatining tub zahiridagi kechinmalariga e'tibor qaratadi.

“Tepalikdagi xaroba” romanini o'qigan kitobxon real hayotni unutadi, ancha vaqtgacha asar ta'siridan chiqib keta olmaydi. Mirza G'olib bilan birga to'qayzorda adashib tentiraydi, to'g'ri yo'l – haq yo'lni axtarib toliqadi, shuningdek, tush bilan o'ng, tarix bilan bugun orasida sargardon kezadi. Shu kabi syurrealistik tasvirlar adibning boshqa asarlarida, jumladan, “Ming bir qiyofa”, “Ko'zgu oldidagi odam”, “Aflotun” romanlarida ham uchraydi. Bu asarlarda xayol bilan hayot, fantastika bilan reallikning o'ziga xos mushtaraklik kasb etganini ko'rish mumkin. “Ming bir qiyofa” romanida Abdulla Hakim ruhining vafotidan so'ng o'z jasadini yuqoridan kuzatib turishi, “Tarix va Madaniyat” deb nomlangan to'qqiz qavatli tashkilotning bir kechada g'oyib bo'lib qolishi, “Ko'zgu oldidagi odam” romanida Siroj muallim jismining uch qiyofaga ajralib uch yoqqa ketishi, “Aflotun” romanida cheksiz sahrodagi quduq ichidan Usmonning darveshlar to'dasiga duch kelishi, “Tepalikdagi xaroba” romanida esa Mirzo G'olibning dashtdagi xarobada Bayron, Mashrab, Lutfiy jasadlarini ko'rish o'tmish bilan bugun o'rtasida chegara yo'qligi, bugun ham ertaga o'tmishga aylanishi muqarrarligi haqidagi falsafiy fikrlarga ishora qilgan. Bundan tashqari, voqealar rivoji va sujet mantiqiyliigi, badiiy to'qimaning hayotiy, falsafiy asosda dalillanishi o'quvchini ishontiradi.

Yozuvchi jahon modern adabiyoti an'analariiga xos tarzda asosiy e'tiborni voqeaband tasviriga emas, balki qahramonlarning ruhiyatidagi evrilishlar, ularning ong osti kechinmalari tasviriga qaratadi. Bu uslub, ya'ni qahramonlarning ichki dunyosini yoritishga e'tibor qaratish – ong oqimi Omon Muxtorning, ayniqsa, so'nggi asarlarida ko'proq kuzatiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Individual uslub va badiiy mahorat**” deb nomlangan. Birinchi fasl “*Poetik uslub qirralari*” deb ataladi. Poetik uslub masalasi doimo dolzarb muammo sifatida adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq etib kelinadi. Biror ijodkorning individual uslubi haqida so'z borganda, avvalo, mazkur adabiy istilohning tub mohiyatini tushunib olish maqsadga muvofiqdir. Abdurauf Fitrat o'zining “Adabiyot qoidalariga”da uslubni quyidagicha ta'riflaydi: “Butun o'zbek yozg'uchilarining ifodalari o'zbekcha bo'lg'ani holda har birining o'ziga maxsus bir uslubi bordir. Biroq, uslubdag'i bu hol tuban, kuchsiz adib-yozg'uchining asarlarida o'zini ochiq ko'rsata olmaydir. Kuchsiz yozg'uchilarning uslublari bir-biriga o'xshab qoladir. Ular oddiy uslubda, umumiy til uslubida yozadir. Shoir-yozg'uchi san'atkorlikda ko'tarila borg'an sayi(n) o'ziga maxsus bir uslub yarata boshlaydir...”

Uslubning adabiyotdagi o'rni juda katta, juda muhimdir. Bir asardagi fikrlar, ma'lumotlarning eski, boshqa shoirlar tomonidan aytilg'an bo'lishi mumkindir. Ularning eskiliginii bizga sezdirmasdan, bildirmasdan ifoda qilib, uni bizga o'quta olg'an kuch uslubdadir”¹.

¹ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 17.

Uslub adabiyotshunoslik ilmida ko'p o'rganilgan bo'lsa-da, uning individualligini tadqiq etish masalasi doimo dolzarb ahamiyat kasb etib qolaveradi.

Ko'pgina manbalarda turg'unlik davri adabiyoti deb nom olgan XX asrning 70-80-yillari an'anaviy ijod yo'lida zerikkan ijodkorlarning noan'anaviy, yangicha, novatorona izlanishlariga sabab bo'lganligi, binobarin, ijodda "o'tish davri"ga ko'prik vazifasini o'taganligi bilan ham ahamiyatlidir. Shu davrda o'z so'zi, o'z uslubi bilan ijod maydonida bo'y ko'rsatgan yozuvchilardan biri – Omon Muxtoridir. Uning asarlari tili, kompozitsiyasi, tur va janrlar oralig'idagi sinkretikligi, o'zgacha tasvir usuli, ifoda tarzi hamda shakl va mazmun birligi nuqtayi nazaridan alohida e'tibor bilan mutolaa qilinadi.

Omon Muxtorning individual uslubiga nazar tashlanganda, uning boshqa ijodkorlarda uchramaydigan quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni sanab o'tish mumkin:

1. Yozuvchining romanlarida xalq og'zaki ijodi an'analari namoyon bo'ladi. Jumladan, "Xotin podshoh", "Aflotun" romanlarida folklorga xos ifoda yo'sini, xalqona poetik til unsurlari kuzatiladi. Shuningdek, bu romanlarda o'zbek xalq og'zaki ijodi janrlari sujetiga o'xshash hikoyalar ham ko'p uchraydi.

